



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИССЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	



MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI



Maxkamov Ibrayim

Namangan danlat texnika universiteti
"Iqtisodiyot" kafedrası dotsenti, i.f.n.

Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi

Namangan danlat texnika universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda ishlab chiqarish jarayonlarini diversifikatsiya qilish hamda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish orqali to'qimachilik mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil etilgan. Shu bilan birga, istiqbolda mamlakatning eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kaliit so'zlar: diversifikatsiya, transport logistikasi, eksport, globalashtirish, xalqaro savdo, eksport potentsiali, strategiya, raqobat.

Abstract. This article analyzes measures aimed at increasing the export potential of textile products through the diversification of production processes and the development of transport and logistics infrastructure in Uzbekistan. Furthermore, scientific proposals and practical recommendations for the further expansion of the country's export capabilities in the future are developed.

Key words: diversification, transport logistics, export, globalization, international trade, export potential, strategy, competition.

Аннотация. В данной статье анализируются меры, направленные на повышение экспортного потенциала текстильной продукции, посредством диверсификации производственных процессов и развития транспортно-логистической инфраструктуры в Узбекистане. Вместе с тем, разработаны научные предложения и практические рекомендации по дальнейшему расширению экспортных возможностей страны в перспективе.

Ключевые слова: диверсификация, транспортная логистика, экспорт, глобализация, международная торговля, экспортный потенциал, стратегия, конкуренция.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globalashuvi xalqaro savdoni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bunday sharoitda mahsulot diversifikatsiyasi eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim strategik omil sifatida qaraladi va bu mamlakatlar va korxonalar uchun xalqaro bozorlarda faol ishtirok etish imkonini kengaytirdi. Shu bilan birga, jahon bozorida raqobatning kuchayishi eksportchilardan yangi strategiyalarning yaratishni talab etadi.



Mahsulot diversifikatsiyasi – bu korxonaning mahsulot turlari yoki xizmatlar assortimentini kengaytirish orqali bozorda o'z ulushini oshirish orqali iqtisodiy xatarlarni kamaytirish strategiyasidir. Ushbu strategiya eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega, chunki u bir turdagi mahsulotga qaramlikni kamaytiradi, yangi bozorlarga kirishni osonlashtiradi va global talabning o'zgaruvchan shartlariga moslashish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan mahsulot diversifikatsiyasi orqali eksport imkoniyatlarini oshirishning ilmiy asoslarini va amaliy yo'llarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahsulot diversifikatsiyasi asosida eksport imkoniyatlarini oshirish borasida bir qator iqtisodiy va biznes strategiyalari nazariyalari bilan shug'ullangan olimlar tomonidan qator fikrlar bildirilgan.

Jumladan, Maykl Porterning "Raqobatbardoshlik afzalligi" [1] nazariyasiga ko'ra, kompaniyalar xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozonish uchun xarajatlar yetakchiligi yoki differentsiatsiya strategiyalaridan foydalanishlari kerak (Porter, 1985). Diversifikatsiya differentsiatsiya strategiyasining muhim qismi sifatida mahsulotlarning turli bozorlar talablariga moslashtirilishi orqali raqobatbardoshlikni oshiradi. Masalan, arzon narxlardagi mahsulotlar rivojlanayotgan bozorlarda, premium mahsulotlar esa rivojlangan bozorlarda talabga ega bo'lishi mumkin. Raymond Vernon tomonidan ishlab chiqilgan mahsulot hayot aylanishi (Product Life Cycle) [2] nazariyasi mahsulotning kirish, o'sish, yetilish va pasayish bosqichlarini ta'kidlaydi (Vernon, 1966). Diversifikatsiya mahsulotning hayot aylanishini uzaytirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, mahalliy bozorda yetilish bosqichiga yetgan mahsulot yangi xalqaro bozorlarda qayta joriy etilishi yoki yangi funksiyalar qo'shilishi mumkin. Shuningdek, resurslarga asoslangan ko'rinish (Resource-Based View) nazariyasiga ko'ra, kompaniyalar o'zlarining ichki resurslari (texnologiya, tajriba, innovatsiyalar) va qobiliyatlaridan foydalanib, diversifikatsiyalangan mahsulotlarni global bozorga eksport qilishlari mumkin (Barney, 1991) [3]. Bu nazariya korxonaning noyob resurslarini yangi mahsulotlar ishlab chiqarish yoki mavjud mahsulotlarni moslashtirishda qo'llashni ta'kidlaydi. Igor Ansoffning strategik matritsasi diversifikatsiyani to'rt yo'nalishda ko'rib chiqadi: bozor penetratsiyasi, bozorni rivojlantirish, mahsulotni rivojlantirish va diversifikatsiya (Ansoff, 1957) [4]. Diversifikatsiya strategiyasi yangi mahsulotlarni yangi bozorlarga olib chiqishni o'z ichiga oladi, bu esa eksport imkoniyatlarini kengaytirishda yuqori riskli, ammo yuqori daromadli yondashuv sifatida ko'riladi. Diversifikatsiyada xalqaro savdo nazariyalari ham muhim o'rin tutadi, xususan, Hecksher-Olin nazariyasiga ko'ra, mamlakatlar o'zlarining resurslari (mehnat, kapital, tabiiy resurslar) asosida ixtisoslashgan mahsulotlarni eksport qiladilar (Olin, 1933). Diversifikatsiya bu jarayonda mamlakatlarga yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va eksport qilish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi. Teyecye va boshqalar (1997) tomonidan ishlab chiqilgan dinamik imkoniyatlar nazariyasi (Dynamic Capabilities Theory) korxonaning o'zgaruvchan global muhitga moslashish qobiliyatini ta'kidlaydi [5]. Diversifikatsiya jarayonida korxonalar yangi bozor talablariga moslashish, innovatsiyalarni joriy etish va resurslarni samarali boshqarish orqali eksport imkoniyatlarini oshiradi. Bu nazariya global bozordagi tezkor o'zgarishlarga moslashishda muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mahsulot diversifikatsiyasi orqali eksport imkoniyatlarini oshirish uchun qator amaliy strategiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Eksport imkoniyatlarini kengaytirish uchun maqsadli bozorlarning ehtiyojlari va talablarini chuqur tahlil qilish zarur. Bozor tadqiqotlari quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: iste'molchi xulq-atvori va maqsadli bozorning madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatlarini o'rganish, raqobatchilarning mahsulotlari va strategiyalarini tahlil qilib, o'z mahsulotlarini differentsiatsiya qilish va eksport qilinadigan mamlakatning standartlari va qonunlariga rioya qilish.

Diversifikatsiyalangan mahsulotlar maqsadli bozorning ehtiyojlariga moslashtirilishi kerak. Bu quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- mahsulotning tashqi ko'rinishi yoki funksiyalarini mahalliy talablarga moslashtirish ya'ni dizayn moslashuvi. Masalan, Xitoy bozori uchun kichikroq o'lchamdagi mahsulotlar, AQSH bozori uchun esa kattaroq o'lchamlar talab qilinishi mumkin;
- yangi texnologiyalar yoki funksiyalar qo'shish orqali mahsulotni raqobatbardosh qilish-innovatsiyalar orqali. Masalan, organik yoki ekologik toza mahsulotlar Yevropa va Shimoliy Amerika bozorlarida yuqori talabga ega;
- turli bozorlarda xaridorlarning to'lov qobiliyatiga qarab narx belgilash- Narx strategiyasi. Misol sifatida, Nestle kompaniyasi turli mamlakatlarda mahalliy ta'm va odatlarga moslashtirilgan shokolad va ichimliklar ishlab chiqaradi (Nestle, 2023);



- eksportning muvaffaqiyati samarali logistika va ta'minot zanjiriga bog'liq. Eksport muvaffaqiyati faqat mahsulot sifatiga emas, balki logistika va ta'minot zanjirining samaradorligiga (tezlik, ishonchlilik, xarajat) bog'liq. "Global savdoda muvaffaqiyat faqat mahsulot sifatiga emas, balki yetkazib berishning tezligi, ishonchliligi va narxiga bog'liq. Samarali logistika eksportning raqobatbardoshligini 30–40% oshirishi mumkin" [6].

Quyidagi strategiyalar qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- tashish-transport xarajatlarni maqbullashtirish, ya'ni arzon hamda eng samarali transport vositalarini tanlash, masalan, dengiz yoki temir yo'l transporti;
- ombor xo'jaligini boshqaruvi. Maqsadli bozorda mahsulotlarni o'z vaqtida yetkazib berish uchun mahalliy va hamkorlar ombor xo'jaligi imkoniyatlaridan foydalanish;
- eksport jarayonini soddalashtirish uchun mahalliy distribyutorlar yoki agentlar bilan hamkorlik qilish va hokozolar.

Shularni e'tiborga olib, mamlakatimizda transport-logistika sohasini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, 6 ta qonun, 7 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni va qarorlari, 13 ta Vazirlar Mahkamasi qarorlari va 9 tadan ortiq xalqaro konvensiyalar qabul qilingan.


Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-yanvardagi PQ-28 son'li qaroriga binoan "O'zbekiston Respublikasining transport-logistika tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" qabul qilindi. Mazkur konsepsiya barqaror iqtisodiy o'sish uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilishini ta'minlovchi transport-logistika tizimini rivojlantirishning o'rta va qisqa muddatli maqsadlari, vazifalari va asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

Konsepsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiyot va biznesning yuqori sifatli yuk tashish xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirish, mamlakat tranzit salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish, eksport-import operatsiyalari qiymatida transport xarajatlarni kamaytirish va istiqbolli transport yo'laklarini shakllantirishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, konsepsiya transport-logistika tizimini rivojlantirishga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra umumjahon eksporti va importida transport xizmatlari salmog'i 2023-yilda 7,90 trillion dollarni va o'rtacha yillik o'sish sur'ati 8,11% bilan 2034-yilga borib 18,63 trillion AQSh dollarigacha ko'tarilishi bashorat qilinmoqda. (1-rasm).

Mutaxxisslarning fikricha, ayni paytda jahonda 3000 dan ortiq logistika markazlari faoliyat ko'rsatyapti. Shuningdek, xalqaro maqomdagi 80 dan ortiq transport yo'lagi mavjud bo'lib, ularning 44 tasi mamlakatimiz hududidan o'tadi. O'zbekiston transportda yuk tashuvlarni tartibga soluvchi to'qqizta xalqaro konvensiya hamda ikkita bitimga qo'shilgan. Bundan tashqari, Yevropa va osiyo qit'alari, MDHning 30 yaqin davlatlari bilan tuzilgan hukumatlararo bitim, 70 dan ziyod mamlakat a'zo hisoblangan Avtomobil transporti halqaro ittifoqi bilan hamkorlik yurtimizda logistika xizmatining yanada rivojlanishini ta'minlab kelmoqda [8].

Shularga asosan mamlakatimizda transport-logistika tizimini jadal rivojlantirish, transport infratuzilmasini yaxshilashga investitsiyalarni jalb qilish, yuk tashishlar bozorida sog'lom raqobat muhitini yaratish borasida qator izchil vazifalar amalga oshirib kelinmoqda.



1-rasm. Umumjahon transport xizmatlari hajmining 2024 – 2034-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlari [7]

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7342148>



Transport sohasida yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi mamlakat hududlarining o'zaro bog'langanligini ta'minlash va transport yo'laklarini diversifikatsiya qilish vazifalarini hal etish imkonini berdi.

Respublikada xalqaro qatnovlar uchun ochiq bo'lgan jami 77 ta, shu jumladan, avtomobil yo'llarida 48 ta, chegaraoldi temir yo'l bekatlarida 17 ta, aeroportlarda 11 ta hamda daryo portida 1 ta Davlat chegarasidan o'tkazish punktlari mavjud.

So'nggi 3 yilda chegara-o'tkazish punktlari infratuzilmasini yaxshilash, bojxona nazorati samaradorligini oshirish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirildi, jumladan «Yallama» va «Olot» chegara o'tkazish punktlarini qayta qurish hisobiga ularning o'tkazuvchanligi 4 barobarga oshdi, xavflarni boshqarish xalqaro tavsiyalari va mezonlariga javob beradigan «Yagona darcha» bojxona axborot tizimi ishga tushirildi. Natijada O'zbekistondagi paxta-to'qimachilik va boshqa mahsulotlar Yevropa Ittifoqi bozorlariga 14 kunda, MDH va Rossiyaning chekka o'lkalariga deyarli bir hafta davomida yetib boradi. Shuningdek, kelishilgan shartnomaga ko'ra O'zbekiston mahsulotlari MDH va Yevropa Ittifoqi bozorlariga bojsiz yokm pasaytirilgan tariflar bo'yicha kirish imkonini beradi.

Jahon bankining 2023-yildagi hisobotiga ko'ra Logistika samaradorligi indeksida O'zbekiston 139 ta davlat orasida 88-o'ringa ko'tarilib (2018-yilda 99-o'rin), MDH davlatlari orasida 5-o'rinni, Markaziy Osiyo davlatlari orasida 2-o'rinni egalladi.

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti uchun Rossiya va Qozog'iston bozorlarida mahalliy logistika hamkorlari muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro bozorda muvaffaqiyat qozonish uchun marketing strategiyasi global va mahalliy elementlarni muvozanatlashtirishi kerak va bunda quyidagi yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- raqamli marketing: Ijtimoiy tarmoqlar (masalan, Instagram, LinkedIn) va onlayn platformalar orqali maqsadli auditoriyaga yetib borish.

- madaniy moslashuv: Reklama kampaniyalarini mahalliy madaniyat va qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish. Masalan, islomiy bozorlarda halol sertifikatlangan mahsulotlar uchun maxsus marketing strategiyalari.

- brend imidji: Mahsulotning sifati va ishonchligini ta'kidlash orqali global bozorda raqobatbardoshlikni oshirish.

Shuningdek, mamlakatlar eksportni rivojlantirishda diversifikatsiya strategiyasini qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi choralarini ko'rish mumkin:

- subsidiyalar va imtiyozlar, ya'ni eksportchilarga soliq imtiyozlari yoki moliyaviy yordam ko'rsatish.

- xalqaro savdo shartnomalari orqali bozorlarga kirishni osonlashtirish.

- eksportni rag'batlantirish dasturlari doirasida mahalliy korxonalarga xalqaro bozorlarda ishtirok etish uchun treninglar va ko'rgazmalar tashkil qilish.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati mamlakat eksportining muhim tarkibiy qismi bo'lib, paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda 6-o'rinni egallaydi (2024-yilda 3,5 mln tonna paxta hosili). So'nggi 10 yilda sanoat xom ashyo eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar (kiyim-kechak, uy to'qimachiligi, texnik matolar) ishlab chiqarishga o'tish orqali sezilarli diversifikatsiya yo'lini bosib o'tdi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda to'qimachilik sanoati mahsulotlari eksporti [9]

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	2015-yil	2021-yil	2024-yil	2025 (bashorat)
Eksport hajmi	mlrd, AQSh dollar	1,1	2,1	3,2	4,0
Paxta tolasi ulushi	foiz	65%	35%	18%	<15%
Tayyor mahsulot ulushi	foiz	35%	65%	82%	>85%
Diversifikatsiya indeksi	foiz	1,8	2,34	2,85	3,1+
Ish o'rinlari	ming	150	320	450	550

O'zbekiston Respublikasi uchun mahsulotni diversifikatsiyalash eksport imkoniyatlarini oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi. An'anaviy ravishda paxta va gaz kabi xomashyo eksportiga tayanib kelgan O'zbekiston so'nggi yillarda diversifikatsiya strategiyasini faol qo'llamoqda. Buni quyida asosiy yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida an'anaviy paxta eksporti o'rniga ip-kalava va tikuv-trikotaj mahsulotlari hamda jahon bozorida xaridorgir bo'lgan organik paxta, shuningdek, meva-sabzavotlar, quritilgan mevalar, sharbatlar va boshqa qayta ishlangan mahsulotlar eksport qilinmoqda. Masalan, O'zbekistonning quritilgan mevalari Yevropa Ittifoqi va Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlarida talab yuqori;

- to'qimachilik mahsulotlari, ya'ni paxtadan tayyorlangan kiyim-kechak va uy to'qimachilik mahsulotlari Rossiya, Turkiya va Xitoy bozorlarida raqobatbardosh bo'lib kelmoqda. "Made in Uzbekistan" brendi xalqaro bozorlarda tobora ommalashmoqda.



- yuqori texnologiyalarga asoslangan, ya'ni IT xizmatlari va dasturiy ta'minot eksporti so'nggi yillarda sezilarli darajada o'sdi. Masalan, O'zbekistonning IT kompaniyalari AQSH va Yevropa bozorlarida xizmatlar eksporti tobora kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilgi qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti 2020-yilga nisbatan 1,5 milliard AQSH dollaridan oshdi, bu esa diversifikatsiya strategiyasining samaradorligini ko'rsatadi [10].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mahsulot diversifikatsiyasi va eksport jarayonida quyidagi xavf-xatarlar mavjud:

- moliyaviy xavflar, ma'lumki yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va bozorga kirish uchun yuqori xarajatlar talab qilinadi.

- madaniy to'siqlar, ya'ni mahalliy bozor talablarini noto'g'ri tushunish muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin.

- huquqiy va normativ to'siqlar mahsulot eksport qilinadigan mamlakatlarning qattiq standartlari va qonunlariga rioya qilish.

- global raqobatning mavjud bo'lishi, ya'ni yirik transmilliy kompaniyalar bilan raqobatlashish qiyin bo'lishi mumkin.

Mahsulot diversifikatsiyasi iqtisodiyotning globallashtirish sharoitida eksport imkoniyatlarini oshirishning samarali strategiyasi hisoblanadi. M.Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi, mahsulot hayot aylanishi, resurslarga asoslangan ko'rinish va Ansoff matritsasi kabi nazariyalar diversifikatsiya strategiyasini shakllantirishda muhim yo'l-yo'riq beradi. Amaliy jihatdan, bozor tadqiqotlari, mahsulot moslashuvi, logistika optimallashtirish va marketing strategiyalari eksport muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bularning barchasi rivojlanib borayotgan O'zbekiston kabi mamlakatlar uchun diversifikatsiya an'anaviy eksport mahsulotlaridan tashqariga chiqish va yangi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Quyidagi fikrlar eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirishga yordam beradi deb hisoblaymiz:

1. Bozor tadqiqotlarini chuqur va keng olib borish: Xalqaro bozorlarning talab va ehtiyojlarini chuqur o'rganish.

2. Innovatsiyalarga investisiya qilish: Yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun texnologik rivojlanishga e'tibor berish.

3. Logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish: Eksport jarayonini soddalashtirish uchun transport va ombor tizimlarini modernizatsiya qilish.

4. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashini yanada kengaytirish: Eksportchilarga moliyaviy va huquqiy yordam ko'rsatish.

Mahsulot diversifikatsiyasi orqali eksport imkoniyatlarini oshirish nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki global bozorda raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. COMPETITIVE ADVANTAGE Creating and Sustaining Superior Performance (1985), Конкурентное преимущество: Как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость Майкл Е Портер; Пер. с англ. — М.: Альпина Бизнес Букс, 2005. — 715 с. ISBN 5-9614-0182-0
2. Вернон, Р. (1966) Международные инвестиции и международная торговля в цикле производства. The Quarterly Journal of Economics, 80, 190–207. <http://dx.doi.org/10.2307/1880689>
3. Барни, Дж. Б. (1991). Ресурсы фирмы и устойчивое конкурентное преимущество. Журнал менеджмента, 17, 99–120. <https://doi.org/10.1177/014920639101700108>
4. Ansoff, H.I. (1957) Diversification Strategy. Harvard Business Review. - References - Scientific Research Publishing. Journals A-Z. Journals by <https://www.scirp.org/reference/referencespapers?referenceid=2431794>
5. Dynamic Capabilities and Strategic Management David J. Teece; Gary Pisano; Amy Shuen Strategic Management Journal, Vol. 18, No. 7. (Aug., 1997), pp. 509-533. Stable URL: <http://links.jstor.org/sici?sici=0143-2095%28199708%2918%3A7%3C509%3ADACSM%3E2.0.CO%3B2-%23>
6. Christopher, M. Logistics & Supply Chain Management. 26-fevral, 2016. ISBN: 9781292083797. 328
7. <https://www.precedenceresearch.com/transportation-services-market>
8. Саидов М.Х., Очилов И.С. Ўзбекистон иқтисодиётида логистика хизматлари ва маҳсулотлар экспорти масалалари. “Аграр тармоқ иқтисодий салоҳиятини оширишда институционал ислохотлар ва агрокорхоналарни ривожлантиришнинг ўрни: муаммо ва ечимлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. Тошкент давлат аграр Университети. 18 май 2021 йил. Тошкент-2021, 299-бет
9. O'zbekiston To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati korxonalari "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi, Statistika agentligi, Jahon banki hisoboti (2024).
10. stat.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
